

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

MAXMUDOVA KAMOLA RAXIMOVNA

**KOMPYUTER O'YINLARI VOSITASIDA TAYYORLOV GURUHI
TARBIYALANUVCHILARINING DIALOGIK NUTQINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasining avtorefarati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Maxmudova Kamola Raximovna

Компьютер o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish 3

Махмудова Камола Рахимовна

Развитие диалогической речи у детей подготовительной группы посредством компьютерных игр 27

Mahmudova Kamola Raximovna

The development of dialogical speech in children of the preparatory group through computer games 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

MAXMUDOVA KAMOLA RAXIMOVNA

**KOMPYUTER O'YINLARI VOSITASIDA TAYYORLOV GURUHI
TARBIYALANUVCHILARINING DIALOGIK NUTQINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori PhD dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PHD/Ped1883 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mdomoi.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Pulatova Parida Muxiddinovna**
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Ibragimova Gulsanam Ne'matovna**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Yetakchi tashkilot: **Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. 12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» 03 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; e-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (64 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; e-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.X. Raxmankulova**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, pedagogika fanlari doktori,
professor

Sh.E. Ne'matov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent

K.Dj. Riskulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, (DSc),
professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish borasida YUNESKO, YUNISEF va OECD kabi xalqaro tashkilotlar bolalarning nutqiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga alohida e'tibor qaratib, ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanishning muhimligi, ushbu tashkilotlarning hisobotlarida ta'limda raqamli texnologiyalar va kompyuter o'yinlari orqali o'quv jarayonini jonlantirish bolalarning interaktiv tajribaga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ularning ijodiy qobiliyati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi, jumladan, YUNESKONing "Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action" hujjatlarida¹ ta'limda innovasion texnologiyalarni joriy etish bolalarning muloqot qobiliyati va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy vosita ekanligi muhim аҳамиятга эга.

Dunyoda turli tadqiqot muassasalari tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda kompyuter o'yinlaridan foydalanish borasida olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. MIT Media Lab (AQSh) ta'lim texnologiyalari va bolalarning kognitiv rivojlanishi borasidagi tadqiqotlarda yetakchi hisoblanadi². Ularning "Scratch" kabi interaktiv o'yin platformalarini ishlab chiqishi bolalarni o'qitish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali bo'lgan. Kembrij universitetining Ta'lim fakulteti (University of Cambridge – Faculty of Education) bolalar ta'limida interaktiv texnologiyalarning rolini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlarni olib bordi³. Ularning ma'lum qilishicha, bolalar o'rtasida jamoaviy o'yinlar orqali muloqot muhitini yaratish dialogik nutqni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, Stenford universiteti (Stanford University – Graduate School of Education) ta'lim texnologiyalari va bolalar ta'limi bo'yicha tadqiqotlarida kompyuter o'yinlarining multimedia elementlari bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda qanday samaradorlik berishi borasida ko'plab natijalarni keltirib chiqargan⁴. Tadqiqotlar bolalarning o'yin jarayonida bir-birlari bilan faol aloqaga kirishi ularning nutq rivojlanishi uchun katta foydali ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Mamlakatimizda bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda kompyuter o'yinlaridan foydalanish hozirgi zamonaviy ta'lim-tarbiya sharoitida yangicha mazmun kasb etdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish maktabgacha ta'limning muhim maqsadlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan maktabgacha yoshdan aniq beriladigan ta'lim-tarbiya yo'nalishlariga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu

¹ UNESCO. (2015). Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. UNESCO IITE. <https://iite.unesco.org/publications/education-2030-incheon-declaration-framework-action-towards-inclusive-equitable-quality-education-lifelong-learning>.

² MIT Media Lab. https://www.media.mit.edu/research/?filter=groups_centers_initiatives.

³ University of Cambridge – Faculty of Education. <https://www.educ.cam.ac.uk/research/programmes>.

⁴ Stanford University – Graduate School of Education. <https://ed.stanford.edu/faculty-research>.

muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish"⁵ kabi muhim vazifalar belgilangan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 11-iyundagi 487-son "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustivor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid tadqiqotlar D.A.Abdurahimova, N.F.Abdullayeva, M.K.Abdurahimova, O'.K.Adamova, Z.Azizova, M.Asqarova, M.Asqarxo'jayeva, M.Yu.Ayupova, N.X.Begmatova, D.G.Boboyeva, U.Bo'tayeva, G.A.Berdaliyeva, F.B.Valixo'jayeva, N.Djamilova, G.N.Nazirova, F.R.Qodirova, T.S.Usmonxo'jayev, S.T.Islomova, M.Fayzullayeva, K.Oqilova, Z.Rahimova, S.S.Rahimova, M.Rustamova, N.I.Rejametova, I.I.Tuychiyeva, Q.S.Shodiyeva, Sh.Shodmonova, P.Yusupova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda nutqning grammatik qurilishini egallash masalalari G.Iskandarova, N.Saidrahimova, M.Qurbonova, G'.Homidov, nutqi to'liq rivojlanmaganligining turli jihatlari (bilingvizm, mehnat tarbiyasi, faol nutq, fonetik-fonematik va yozma nutq kamchiliklari) Z.Axmedova, M.Ayupova, Ye.Babayeva, V.Veretennikova, L.Mo'minova, X.Po'latova, N.Raxmonkulova; jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy muammolarining ayrim jihatlari D.Nazarova, V.Raxmonova, R.Rustamova, N.Sosedova,

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2019. – B. 39.

U.Fayziyeva, M.Xamidova, R.Shomaxmudova, F.Qodirovalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

MDH mamlakatlarida nutqning grammatik qurilishini egallash masalalari P.Blonskiy, D.Bogoyavlenskiy, N.Valgina, L.Vigotskiy, V.Vinogradov, A.Gvozdev, A.Zaxarova, A.Leontyev, A.Potebnya, M.Popova, D.Rozental, G.Rozengrad-Pupko, S.Rubinshteyn, F.Soxin, A.Tambovseva, Ye.Tixeyeva, L.Svetkova, A.Shaxnarovich, L.Sherba, N.Shvachkin; nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalardagi tovushlar talaffuzi A.Markova, G.Kashe, O.Usanova; lug‘at boyligi J.Antipova, V.Vorobyeva, B.Grinspun, V.Kovshikov, R.Levina, V.Orfinskaya, V.Sobotovich, N.Traugott, L.Filicheva, G.Chirkina, S.Shaxovskaya, A.Yastrebova, grammatik jihati T.Axutina, V.Vinogradov, Ye.Drozdova, G.Jarenkova, N.Jukova, A.Zikeyev, K.Korovin, I.Kolpovskaya, A.Korotkova, R.Lalayeva, R.Levina, Ye.Mastyukova, N.Nikashina, Ye.Nazarova, N.Serebryakova, L.Spirova, Ye.Sobotovich, T.Tumanova, T.Ushakova, T.Filicheva, A.Yastrebovalar tadqiqotlarida yoritilgan.

So‘nggi o‘n yillikda maktabgacha ta‘lim-tarbiya jarayoni yangi zamonaviy o‘yin turlari – kompyuter o‘yinlari bilan to‘ldirildi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining o‘quv-tarbiya jarayonida kompyuterdan foydalanish muammolari I.G.Belavin, V.M.Bondarenko, H.A.Volkova, Yu.M.Gorvis, Ye.V.Zvorigina, S.L.Novoselova, L.A.Paramonova, G.P.Petku va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Maktabgacha ta‘lim jarayonida bolalar nutqining grammatik qurilishini rivojlantirishning ilmiy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan, M.Gopnik, M.Crago, Friedmann, Novogrodsky, Van der Lely, Marc E.Fey, R.Mayerlar tomonidan tadqiq qilingan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish doir nazariy manbalar mavjud bo‘lsada, kompyuter o‘yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish bo‘yicha yetarli darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilamoqda.

Tadqiqotning maqsadi kompyuter o‘yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha ta‘lim-tarbiya jarayonida kompyuter o‘yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

kompyuter o‘yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

an’anviy va kompyuter o‘yinlari integratsiyasi asosida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

kompyuter o‘yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish darajasini aniqlash mezonlarini takomillashtirish, tadqiqot natijalarini pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish, natijalarga matematik-statistik ishlov berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish jarayoni belgilab olingan.

Tadqiqotning predmeti maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot muammosiga oid adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, analitik obzor, suhbat, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash, qiyosiy tavsifiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kompyuter o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari dialogik nutqni tavsiflash, nutqni rivojlantirishning amaliy-metodik mazmunini qiyosiy prognozlash hamda rivojlanish mezonlari, ko'rsatkichlari va darajasini belgilashga oid pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berish asosida aniqlashtirilgan;

kompyuter o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish texnologiyalari aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro proporsional aloqadorligini faktik ko'rsatib berish hamda lingvistik sezgirlikni rivojlantirish va faol nutq amaliyotini ta'lim subyektlari o'rtasidagi qayta aloqaga kirishish mobilligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

kompyuter o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish modeli an'anaviy va kompyuter o'yinlarining integrativ xususiyatlarini didaktik maqsadlar mazmuniga idiyentiv moslashtirish hamda maqsadli, tarkibli, prosessual-faoliyatli, diagnostik-natijaviy modullardan foydalanish natijadorligini oshirish asosida takomillashtirilgan;

kompyuter o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish darajasini aniqlash mezonlari kirishimlilik, murojaatga munosib javob berish, atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishish qobiliyatlariga oid va ko'rsatkichlarni prognostik aniqlash hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinli-amaliy topshiriqlarni izchil kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun "Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini kompyuter o'yinlari vositasida rivojlantirish metodikasi" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqilgan;

kompyuter o'yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan metod va vositalar aniqlangan, ulardan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini kompyuter o'yinlari vositasida rivojlantirishda uzviylik jarayonining didaktik ta'minoti, ushbu yo'nalishda pedagog-tarbiyachilarning amaliy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradigan mashg'ulotlar ishlab chiqilgan;

kompyuter o'yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik ta'minotdan pedagog-

tarbiyachilarning malakasini oshirishda foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik asoslanilganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kompyuter o'yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda an'anaviy va kompyuter o'yinlarning integrasion didaktik modeli, mazkur modelni amalga oshirishning tashkiliy-metodik tizimini ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun "Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini kompyuter o'yinlari vositasida rivojlantirish metodikasi" nomli metodik qo'llanmaning ishlab chiqilganligi va amaliyotga joriy etilganligi, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, tarbiyachilar uchun variativ dasturning ishlab chiqilganligi, katta va tayyorlov guruhi bolalarida dialogik nutqni rivojlanganlik darajasini belgilovchi baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining ishlab chiqilganligi, amaliyotga tabiiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kompyuter o'yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kompyuter o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari dialogik nutqni tavsiflash, nutqni rivojlantirishning amaliy-metodik mazmunini qiyosiy prognozlash hamda rivojlanish mezonlari, ko'rsatkichlari va darajasini belgilashga oid pedagogik shart-shart sharoitlarni yaratib berish asosida aniqlashtirishga oid ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayoni o'quv-meyoriy hujjatlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 19-iyuldagi 03-344-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tarbiyalanuvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish pedagogik jarayonini takomillashtirishga xizmat qilgan;

kompyuter o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish texnologiyalari aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro proporsional aloqadorligini faktik ko'rsatib berish hamda lingvistik sezgirlikni rivojlantirish va faol nutq amaliyotini ta'lim subyektlari o'rtasidagi qayta aloqaga kirishish mobilligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi pedagogik jarayonlar mazmunini takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirishda foydalanilgan (Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 19-iyuldagi 03-344-sonli ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi

bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish jarayoni sifatini oshirish imkoni kengaytirilgan;

kompyuter o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish modeli an'anaviy va kompyuter o'yinlarining integrativ xususiyatlarini didaktik maqsadlar mazmuniga idiyentiv moslashtirish hamda maqsadli, tarkibli, prosessual-faoliyatli, diagnostik-natijaviy modullardan foydalanish natijadorligini oshirish asosida takomillashtirishga oid ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi pedagogik jarayonlar mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan (Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 19-iyuldagi 03-344-sonli ma'lumotnomasi). Natijada rivojlanish markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning kompyuter o'yinlari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

kompyuter o'yinlari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish darajasini aniqlash mezonlari kirishimlilik, murojaatga munosib javob berish, atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishish qobiliyatlariga oid va ko'rsatkichlarni prognostik aniqlash hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinli-amaliy topshiriqlarni izchil kiritish asosida takomillashtirishga oid ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi pedagogik jarayonlar natijadorligini oshirishda amalda foydalanilgan (Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 19-iyuldagi 03-344-sonli ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarning kompyuter o'yinlari orqali dialogik nutqini rivojlantirish jarayoni sifati va samaradorligini oshirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy-uslubiy ishlar e'lon qilingan bo'lib, shu jumladan, 1 ta o'quv-metodik qo'llanma qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan; ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchligi asoslangan; ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘yin texnologiyalaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishning uslubiy va psixologik-pedagogik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha yoshdagi bolalar dialogining lingvistik xususiyatlari va dialogik nutqining ontogenez xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslari, maktabgacha ta‘lim nazariyasi va amaliyotida an’anaviy va kompyuter o‘yinlarining integratsiyasi o‘rni hamda ahamiyati yoritib berilgan.

Maktabgacha bolalik ona tilini o‘rganish va bolani rivojlantirish uchun o‘ziga xos davrdir. Bolalarning nutqini to‘liq rivojlantirish - ularni tarbiyalash va o‘qitish uchun zarur shartdir. Bola hayotida nutqni rivojlantirishning ulkan roli til va nutqning ko‘p funksional tabiati bilan bog‘liq.

Maktabgacha ta‘lim nazariyasi va amaliyoti uchun bolalarning nutqini rivojlantirish uchun ularning yoshiga mos keladigan va ushbu muammoga bevosita bog‘liq bo‘lgan asosiy talablarga javob beradigan samarali texnologiyalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish uchun o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Ammo bu muammo F.R.Qodirova, R.S.Alpatova, Ye.I.Matesko, O.Ye.Sergeyeva, L.G.Urushadze, Yu.B.Yudovina va boshqalarning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni boshqa tillarga o‘rgatish bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Tadqiqotchilar ta’kidladilarki, o‘yin og‘zaki qobiliyatning nutqiy namoyon bo‘lishi va bolalar nutqining sifatiga samarali ta’sir qilish uchun qulay sharoitdir, chunki o‘yin maktabgacha tarbiyalanuvchining asosiy faoliyatiga tegishlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida o‘yinning ahamiyati katta. Psixologlar o‘yinni maktabgacha tarbiyachining yetakchi faoliyati sifatida, uning tuzilishi va rivojlanish dinamikasi, bolaning ruhiy rivojlanishidagi roli nuqtai nazaridan o‘rganadilar. Pedagogika bolalar o‘yinlarini bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda qo‘llashning turli imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. O‘yinning pedagogik imkoniyatlari qadimgi davrlardan beri pedagoglar va jamoat arboblari jalb qilgan.

Bolaning nutqini rivojlantirish uchun o‘yin – erkin xatti-harakatlar maktabi ekanligi muhimdir, chunki unda har daqiqada bola o‘yin qoidasini bajarish foydasiga tezkor istaklardan bosh tortadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, og‘zaki kommunikatsiya shakllariga asoslangan o‘yinlar: og‘zaki jumlar bilan o‘zgaruvchi, musiqiy, teatrlashtirilgan (taqlid, drammatizatsiya, rejissyorlik), syujet-rolli o‘yin, stol usti-bosma va boshqa o‘yinlar bola nutq faoliyatining turli tomonlari shakllanishiga yordam beradi. Ularning yordami bilan kichkintoylarda nutq va muloqot madaniyati shakllanadi.

Kompyuter o‘yinlari sharoitida o‘z harakatlarini rejalashtirish, natijasini oldindan bilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Ko‘pincha, u yoki bu tugmachani bosish natijasi darhol ta’sir qilmaydi va o‘zini juda bilvosita, murakkab shaklda namoyon qiladi va bu ekrandagi voqealar zanjirli reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Bolaning qo‘l harakatlari va ularning natijalari o‘rtasida tubdan yangi aloqa yaratiladi. Aynan shu lahza o‘z faoliyatining tobora murakkab tuzilmalarini qurish qobiliyatining rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu qobiliyat, Yu.M.Gorvisaning fikriga ko‘ra, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatining shakllaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Kompyuter o‘yinlaridan foydalanish, shuningdek, faoliyat maqsadi va unga erishish shartlari o‘rtasidagi mavjud ziddiyatli munosabatlarni yengib o‘tishni rag‘batlantiradi. Bolalar asosiy maqsadni yordamchi maqsadlarga ajratishni, ular o‘rtasida aloqa o‘rnatishni o‘rganadilar. Mavjud bir qator o‘yinlar bolalarning maqsadlarni mustaqil belgilash va ularga mustaqil ravishda erishish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonda ijodiy eksperimentning juda muhim faoliyati shakllanadi.

Kompyuterni o‘zlashtirish bola shaxsini shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va unga yuqori ijtimoiy maqom beradi. Uyda, hovlida, u o‘z o‘rtoqlariga kompyuter o‘yinlarining barcha “nozikliklari” haqida g‘urur bilan so‘zlab beradi. Shu bilan birga, bolaning o‘zini o‘zi qadrlashi, hayotni yanada qoniqarli his qilish va emosional qulaylik hissi kuchayadi. Shunday qilib, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kompyuter o‘yinlarini bolalar bog‘chasining didaktik vositalari tizimiga kiritish bolaning shaxsini boyitishda va uning dialogik nutqini rivojlantirishda qo‘shimcha omil bo‘lishi mumkin. Ularning tarkibiga dialogik nutqning majburiy kiritilishi bilan kechadigan an‘anaviy va kompyuter o‘yinlarining kombinatsiyasi, shubhasiz, bolalarning dialogik ko‘nikmalarni egallash jarayonini faollashtirishga imkon beradi. An‘anaviy va kompyuter o‘yinlari majmuasidan foydalanish, yuqori darajadagi motivatsiya, mashg‘ulot mazmunini o‘zlashtirish uchun ongli ehtiyoj, samaradorlik bilan tavsiflanadi.


Dissertatsiyaning **“Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini kompyuter o‘yinlari vositasida rivojlantirishning amaliy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida kompyuter o‘yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish imkoniyatlari, tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarning dialogik nutqini kompyuter o‘yinlari vositasida rivojlantirish texnologiyasi va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlanish darajasini aniqlash metodikasi yoritib berilgan.

Bizning tadqiqotimiz uchun kompyuter o‘yinlaridan maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyati masalasi muhim edi. Kompyuter texnologiyalarining nutqni rivojlantirishga ta‘siri, shu jumladan, bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar o‘tkazilmagan, garchi ko‘plab mualliflar kompyuter o‘yinlarining maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy (dialogik) muloqotiga rag‘batlantiruvchi ta‘sirini qayd etishgan.

Ko‘plab o‘yinlarning dialogik nutqni rivojlantirish uchun salohiyatli imkoniyatlari bor deb hisoblash mumkin, xususan:

- ijtimoiy va intellektual o‘yinlar (faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha);
- rivojlantiruvchi, reproduktiv, samarali va ijodiy (dialogik ko‘nikmalarni rivojlantirishning turli bosqichlarida pedagogik jarayon xarakteriga ko‘ra);

- syujetli, rolli, dramatik o‘yinlar (o‘yin uslubiga ko‘ra);
- nutqli va adabiy o‘yinlar (mavzu sohasi bo‘yicha);
- mavzuga oid, mavzusiz va kompyuter o‘yinlari (materiallardan foydalangan holda).




**1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning
dialogik nutqni rivojlantiruvchi o‘yin turlari**

Tadqiqotchilar kompyuterdan bolalarga o‘qitish va o‘ynash vositasi sifatida foydalanishning kamchiliklari, nomukammal kompyuter dasturlaridan foydalangan holda, “odam-mashina” suhbatlari jarayonida shaxsiy muloqot kabi o‘zaro munosabatlarning yo‘qligi va bolalarning kompyuterga haddan tashqari ishtiyoqi bilan bog‘liq deb hisoblashadi. “Tijoriy” deb nomlangan o‘yinlarning aksariyati ham salohiyatli xavfga ega: ular bola uchun intellektual vazifalarni qo‘ymaydi va asosan tashqi ta’sirga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘pincha tajovuzkorlikni targ‘ib qiladi.

Ta’kidlash joizki, psixologlar va o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy kompyuter o‘yinlari yuqorida aytib o‘tilgan kamchiliklardan xoli. Maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ularni qo‘llashning afzalliklari olib borilayotgan izlanishlar va psixologik-pedagogik tajribaning mavjudligidan dalolat beradi. O‘yin kompyuter dasturlarining zamonaviy ishlab chiqaruvchilari bolalarning yosh xususiyatlarini, o‘quv jarayoniga bo‘lgan ehtiyojlarni va kompyuterning mavjud imkoniyatlarini hisobga olishadi. Mavjud talablar va tavsiyalarga muvofiq foydalaniladigan sertifikatlangan kompyuter o‘yinlari bolalarni o‘qitish va tarbiyalash usullari va tashkiliy shakllarini rivojlantirish, bolalar faoliyati va pedagogik jarayonni boyitish uchun ideal imkoniyatlarni ochib beradi.

O‘yin amaliy fikrlash shakllaridan biridir. O‘yinda bola o‘z bilimi, tajribasi, taassurotlari bilan harakat qiladi, o‘yinning mazmun sohasida ma’no kasb etadigan,

harakatning ijtimoiy ko‘rinishida namoyish etiladigan o‘yin usullarini, o‘yin belgilarini aks ettiradi. O‘yin, ongli faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘la turib va bolaning atrofidagi tabiiy va ijtimoiy voqelikni anglashni aks ettirishning amaliy shaklini ifodalay turib, unga, majoziy aytganda, “o‘z qobiliyatining qanotlarini” yoyishga imkon beradi. Dunyo haqidagi fikrlash bo‘yicha o‘yin jarayonida bola o‘yinda voqelikni aks ettirish uchun belgili (ramziy) tizimidan foydalanadi. O‘yinda bola tomonidan voqelikni aks ettirish alomatleri iyerarxik tuzilishga ega bo‘lib, u tashqi belgida – predmet, tasvir, ramz, shu jumladan, so‘z bilan voqelik tasvirini aks ettiradi.



2-rasm. Kompyuter o‘yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqni rivojlantirishda hamkorlik faoliyati

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola o‘yinning ongli maydonida neytral (hozirgi vaqtda) ob‘yektga ega bo‘lish qobiliyatini ochib beradi. Aynan shu qobiliyat, kompyuterni maktabgacha yoshdagi bolaga o‘yin vositasi sifatida kiritish uchun asosiy psixologik asosdir. Ekranda paydo bo‘lgan tasvirni bola o‘zi o‘yinning syujetini tuzishda, kompyuter dasturining badiiy va funksional imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘ynashda ma’noga boyitishi mumkin.

Bolalarning o‘yinidagi haqiqiy predmetni unga real ma’noni berish orqali o‘yin predmetiga almashtirish, real harakatni esa o‘yin harakatiga almashtirish qobiliyati kompyuter ekranidagi ramzlar bilan mazmunli ishlash qobiliyatiga asoslanadi. Shuning uchun kompyuter o‘yinlari oddiy o‘yinlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak.

Agar oddiy o‘yinda bola haqiqatni “belgilovchi”, ammo juda aniq predmetlar yordamida aks ettirsa, u kompyuter bilan o‘ynashda maxsus ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi o‘yin dasturidan foydalanib, o‘zining tasavvuridagi tasvirga asoslangan funksional “video ketma-ketlikni” yaratishi mumkin.

Bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda kompyuter o‘yinlaridan foydalanish istiqbollari tadqiqotchilarning kuzatuvlari va ulardan foydalanish tajribasini umumlashtirish orqali tasdiqlanadi.

Kompyuter o‘yin dasturlarining tahlili ularning turli xil dialogik murojaatlarining namunalarini namoyish etish imkoniyatlarini ochib berdi. Virtual suhbatdoshlarning luqmalari funksional maqsadi va nutqiy tuzilishi jihatidan turlicha, ular hissiy tarkibi jihatidan xushmuomala va mazmun jihatidan bag‘rikengdir.

Maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun bolalarning nutqini rivojlantirish uchun ularning yoshiga mos keladigan va ushbu muammoga bevosita bog‘liq bo‘lgan asosiy talablarga javob beradigan samarali texnologiyalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda kompyuter o‘yinlaridan foydalanish o‘ziga xos imkoniyatlari aniqlandi:

kompyuter o‘yinlari – bolalarning ta’lim, tarbiya, ruhiy rivojlanish vositasi;

kompyuter o‘yinlari an’anaviy o‘yinlar va mashg‘ulotlar bilan bir qatorda maktabgacha ta’lim muassasasining o‘quv jarayoniga mutlaqo mos keladi va uni yangi imkoniyatlar bilan boyitadi;


kompyuter o‘yinlarida odatiy sharoitlarda o‘zlashtirish qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan bilim elementlari taklif etiladi;

bolalar bog‘chasidagi kompyuter o‘yinlari bolalarning mustaqil ijodiy o‘yinlari bilan uyg‘unlashtiriladi.

Bizning tadqiqotimizning vazifasi maktabgacha yoshdagi katta bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlarning integrallashgan kompleksini yaratish edi. Integratsiya deganda biz o‘yinlarning dialogik yo‘nalishdagi chuqur o‘zaro bog‘liqligini tushunamiz: teatrlashtirilgan, rejissyorlik, didaktik, harakatchan va kompyuter o‘yinlari.

Integratsiyaning birinchi bosqichi uning yo‘nalishini va maqsadga muvofiqligini aniqlash edi; uning muhim va rasmiy-mantiqiy aloqalari, bilan integratsiya obyektlari va shakllarini tanlash, shuningdek, uning turi. Integratsiyaning maqsadi maktabgacha yoshdagi katta bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish texnologiyasini yangilash edi. An’anaviy o‘yinlarning har xil turlari (didaktik, harakatchan, rejissyorlik, teatrlashtirilgan) va kompyuter o‘yinlari, shuningdek ulardan foydalanish usullari integratsiya obyekti sifatida yuzaga keldi.

Biz quyida kompyuter o‘yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish modelini taqdim etamiz.



3-rasm. Kompyuter o'yinlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish modeli

Integratsiya shakli sifatida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida dialogik nutqni rivojlantirish uchun eksperimental o‘yin texnologiyasi yuzaga keldi. Texnologiyani ishlab chiqishda ularning xususiyatlarining ko‘p o‘lchovliligi va xilma-xilligi hisobga olingan. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish uchun o‘yin texnologiyasining malakaviy parametrlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish uchun o‘yin texnologiyasining malakaviy parametrlari

Qo‘llash darajasi bo‘yicha:	umumiy pedagogik
Falsafiy asos bo‘yicha:	moslashuvchan
O‘zlashtirish konsepsiyasiga ko‘ra:	assosiativ-refleksli, rivojlantiruvchi
Rivojlanishning asosiy omili bo‘yicha:	kompleks (ijtimoiy- va psixogen).
Shaxsiy tuzilmalarga yo‘naltirish bo‘yicha:	hissiy-axloqiy + bilim, ko‘nikma
Tarkibning mohiyati bo‘yicha:	ta’lim-tarbiyaviy, insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilgan
Tashkiliy shakllar bo‘yicha:	individual va guruh ustunligi bo‘lgan bolalar bilan tarbiyachining birgalikdagi faoliyatining barcha shakllari
Boshqaruv turi bo‘yicha:	kichik guruhlar tizimi
Bolaga yondashuv bo‘yicha:	erkin tarbiya elementlariga ega bo‘lgan hamkorlik pedagogikasi
Ustuvor usulga ko‘ra:	o‘yinli
Modernizatsiya yo‘nalishi bo‘yicha:	faollashtirish
Tarbiyalanuvchilar toifasiga ko‘ra:	ommaviy, maktabgacha yoshdagi katta bolalar

Bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish mantig‘iga o‘yinlarni integratsiyalashda tizimni tashkil etuvchi omil sifatida qaraldi. Shunga asoslanib, o‘yinlarni (integratsiya ob‘yektlarini) tanlash dialogik ko‘nikmalarni rivojlantirish bosqichlariga mos ravishda amalga oshirildi.

Amaldagi integratsiyaning muhim xususiyati uning faoliyat shakli edi, chunki integratsiya obyektlari bo‘lib bolalar o‘yin faoliyatining har xil turlari xizmat qildi. Turli xil o‘yinlar kompleksi integratsiyaning rasmiy va mantiqiy belgisi edi.

Biz pedagogik integratsiyaning turini fanlararo deb baholadik, chunki an’anaviy va kompyuter o‘yinlarining o‘zaro ta’sirida nafaqat bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish amalga oshirildi, balki ularning o‘yin faoliyati va munosabatlarining mazmuni ham boyitilgan edi.

Integratsiya innovasion darajada amalga oshirildi, chunki uning asosida bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishning tubdan yangi texnologiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u nafaqat dialogik nutqni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik

yordam vositalarini, balki ushbu yordamning mazmuni va bosqichlarini yangilashni ham koʻzda tutadi. Texnologiyaning tarkibiy va prosessual qismini ishlab chiqishda toʻrtta modul aniqlandi: maqsadli, tarkibli, prosessual-faoliyatli va diagnostika-natijali. Texnologiya sxematik ravishda 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishning oʻyin texnologiyasi

<p>Maqsadli blok</p>	<p>Maqsad: 6-7 yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish. Pedagogik vazifalarlar: 1) dialogga xos boʻlgan turli tashabbuskorlik va javob mulohazalaridan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish; 2) kirishimlilik va dialogni tarbiyalash; 3) bolalarning nutq va oʻyin ijodkorligining barcha jihatlarini rivojlantirish; 4) bolalarni insoniy muloqot meʼyorlari va qadriyatlari bilan tanishtirish</p>
<p>Mazmunli blok</p>	<p>– “savol – javob” dialogik birligi uchun xarakterli boʻlgan mulohazalarni oʻzlashtirishga va tegishli dialog madaniyati qoidalariga rioya qilishga koʻmaklashish; – “xabar - xabarga munosabat” dialogik birligi uchun xarakterli boʻlgan mulohazalarni oʻzlashtirishni va tegishli dialog qoidalariga rioya qilishga koʻmaklashish; – “undov - undovga munosabat” dialogik birligi uchun xos boʻlgan mulohazalarni oʻzlashtirishni va tegishli dialog qoidalariga rioya qilishga koʻmaklashish</p>
<p>Jarayonli-faoliyatli blok</p>	<p>Taʼlim jarayonining ishtirokchilari: 6-7 yoshdagi bolalar, tarbiyachilar, ota-onalar. Faoliyat: maxsus tashkil etilgan faoliyatlar (nutqli, badiiy adabiyot, kompyuter bilan tanishtirish), tarbiyachining bolalar bilan birgalikdagi faoliyati shaklidagi taʼlim; bolalarning mustaqil oʻyin faoliyati; integratsiyalashgan anʼanaviy va kompyuter oʻquv oʻyinlari kompleksi; mavzuli-rivojlantiradigan oʻyin muhiti. Usullari: tarbiyachi va bolalar oʻrtasidagi muloqotni faollashtiruvchi oʻyin usullari, badiiy adabiyotlarni oʻqish, spektakllar (oʻyinli, qoʻgʻirchoqli), filmlarni tomosha qilish; oʻyinni boshqarishning keng qamrovli usuli. Izchillik: har bir blokni bosqichma-bosqich amalga oshirish (idrok etish, bahamjihatlik, umumlashtirish va oʻzlashtirilgan nutq shakllarini yangi muloqot shartlariga oʻtkazish)</p>
<p>Diagnostik-natijaviy blok</p>	<p>Natija: bolalar tomonidan dialogik nutqni oʻzlashtirish darajasining oshishi</p>

	<p>Dialogik nutqning rivojlanishini nazorat qilish: dastlabki (tajriba boshida), joriy, oraliq (har bir blok mazmuni amalga oshirilgandan so‘ng), yakuniy (eksperimental ish oxirida).</p> <p>Diagnostik usullar: bolalar nutqini kuzatish, o‘yin vazifalari, juftlikdagi o‘yinlar, kompyuter bilan o‘yinlar; monitoring xaritalarini yuritish</p>
--	--

Bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishga qaratilgan mazmunli texnologik modulni ishlab chiqish, nutqning dialogik tuzilmalari va ular bilan bog‘liq ijtimoiy ma‘qullangan xulq-atvor shakllarining birligini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Tarkibiy modul uchta blokni o‘z ichiga olgan.

Birinchi blok bolalar tomonidan “savol-javob” dialogik birligidan mulohazalarni o‘zlashtirish va shu juft mulohazalarga mos keladigan xatti-harakatlar shakllarini ko‘zda tutadigan vazifalar to‘plamidan iborat edi. Ikkinchi blokda “xabar-xabarga munosabat” va tegishli dialog madaniyati qoidalariga bog‘liq materiallar mavjud edi. Uchinchi blok “undov-undovga munosabat” dialogik birligida bolalarga mulohaza va og‘zaki xulq-atvorni o‘rgatish vazifalarini o‘z ichiga olgan. Ushbu tarkib 3-jadvalda keltirilgan.

Har bir blok dialog madaniyati bilan bog‘liq muammolarni parallel ravishda hal qilishni nazarda tutgan bo‘lib, uning yechimisiz dialog nutq va xulq-atvor shakli sifatida mavjud bo‘lmaydi. Bularga, avvalambor, qoidalar kiritildi: ketma-ketlikka rioya qilish; suhbatdoshning gapini bo‘lmasdan tinglash; umumiy suhbat mavzusini saqlab qolish; gaplashayotganda suhbatdoshga qarash; tegishli mo‘tadil ovoz kuchi bilan xotirjam, xayrixohlik bilan gapirish.

“Undov-undovga munosabat” dialogik birlik ustida ishlash jarayonida bolalar tomonidan nutq odob-axloq qoidalarini o‘zlashtirishga ko‘maklashish:

bolalarning so‘z boyligini turli xil formulalar va nutq odob-axloq ifodasining ma‘lum bir zaxirasi, holatga xizmat qiluvchi iltimos, minnatdorchilik, uzr, taklif va taklifnomalar bilan boyitish;

bolalarni ongli ravishda odob-axloq vositalaridan foydalanishga o‘rgatish: o‘rganilganlar orasidan ma‘lum sharoitlarga ko‘proq mos keladiganlarni tanlash, uni yo‘naltirish va iloji bo‘lsa “rag‘batlantirish”.

3-jadval

Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish bo‘yicha ishlarning eksperimental mazmuni

Dialogik birlik	Rag‘batlantirishlarni o‘zlashtirish	Munosabatlarni o‘zlashtirish	Dialogda o‘zini tutish qoidalarini o‘zlashtirish
Savol-javob	Turli xil mazmundagi (kognitiv va ijtimoiy-shaxsiy); turdagi (oddiy, ikki qismli, muqobil) savollarni berish; so‘roq	savollarga muloqot mavzusi va vaziyatiga mos ravishda kommunikativ	savollarni manzilli qilib berish, savolga savol bilan javob bermaslik, savol berganda, odobli

	soʻzlar va olmoshlardan foydalanish qobiliyati.	maqsadga muvofiq ravishda javob berish qobiliyati	munosabatda boʻlish, savolni eʼtiborsiz qoldirmaslik, umumiy suhbatda navbat bilan gaplashish
Undov-undovga munosabat	Tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda xushmuomalalik bilan ifoda etish qobiliyati: har qanday harakatga undash, iltimoslar, maslahatlar, takliflar va boshqalar.	Ijtimoiy qabul qilingan shakllarda undovni bajarishga tayyorligini bildirish yoki bajarishni rad etish qobiliyati.	Undovga undovlar va munosabatlarni ifodalashda nutq odob-axloqi vositalaridan foydalanish.
